




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıyly shıyg'armalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushılyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

TOSHKENT VILOYATI SHEVALARINI LEKSIK JIHATDAN BAZI TAHLILI

A LEXICAL ANALYSIS OF SOME DIALECTS OF TASHKENT REGION

Marjona ABDUMAJITOVA,

TOSHDU 'TAU talabasi

Ilmiy rahbari: Filol.fan.f.dok(PHD). Turdaliyev Anvarbek Xusinovich

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NPWW1614

Annotation. *The lexical features of some dialectal words commonly used in the daily life of the population of Tashkent region, mainly in the Bekobod and Bo'ka districts, are classified and compared. Based on our observations conducted on the vocabulary of the dialects spoken in Bekobod and Bo'ka districts, we classified the dialectal lexicon according to the following linguistic features.*

Key words: *Dialect, accent, Uzbek dialectology, Karluk dialect group.*

“O'zbek dialektologiyasi” sotsiolingvistika fanlaridan biri bo'lib, o'zbek mahalliy shevalarini o'rganadi. Dialektologiya so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to'g'risidagi bilim degan ma'noni bildiradi. O'zbek dialektologiyasi o'zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalish chegaralarini hamda shevalarning faoliyatda bo'lishi bilan bog'liq masalalarni o'rganadi.

Shevalar to'g'risidagi fanni o'rganish talabalarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini tug'diradi. Bu borada prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning: “..... o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, shevalari (ta'kid bizniki – A.S.), tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish...” haqidagi fikri e'tiborlidir [Мирзиёев Ш.М., 2019].

Keyingi davrdagi yangi ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda shevalarga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgardi va bu ma'naviy boylikni keng o'rganishga yo'l ochildi. Dialektologlar tomonidan shevalarni o'rganish bo'yicha samarali ishlar qilindi. Shevalarni bir- nechta sohalarga bo'lib o'rganishdi. Dialektologiyaning sohalari: tasviriy dialektologiya, tarixiy dialektologiya, folklor dialektologiyasi (lingvofolkloristika). O'zbek tili va uning shevalari XX asrning boshlaridan keng miqyosda o'rganildi. G'.O.Yunus, Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxinlar Shonazar Shoabdurahmonov va boshqalar ushbu sohaga hissa qo'shgan.

“Lahja” arabcha so'z bo'lib, u ravish, tarz, yo'sin, sheva ma'nolarini bildiradi. Dialektologik termin sifatida qadimdan o'zbek tilining taraqqiyotiga asos bo'lgan sheva va dialektlarning eng yirik to'dasini anglatadi. O'zbek tili o'z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tashkil topgan. Ular – qarluq lahjasi, qipchoq lahjasi o'g'uz lahjasidir.

Toshkent viloyati shevalari mavzusida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shevalar adabiy tilni boyitishga xizmat qiluvchi milliy tilning tarkibiy qismidir. “Sheva” forscha tarz, yo'sin degan ma'nolarni bildirib, fanda o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari farqlanib turadigan milliy tilning kichik territoriyaga oid qismini anglatadi. Y. D. Polivanov esa Toshkent, Samarqand. Xorazm, Turkiston, Iqon, kabi shevalarni bevosita borib o'rgangan hamda o'zbek shevalarining ilmiy tasnifini ishlab chiqdi. Bundan tashqari “Toshkent shevasining tovush tizimi” (1922) kabi ishlari mavjud. M.Turobova Toshkent viloyati o'zbek shevalarining sintaktik tizimini o'rgangan.

I.Marosimlar bilan bog'liq shevaga oid so'zlar:

Fotiha qilmoq fe'lining turli sheva vakillari tomonidan aytilishi:

Fotiha qilmoq- qizning uyiga yoshi kattalar sovchi bo'lib kelganida rozilik bildirishi.

Pātja qipti, Āqliyini beribti, Hop depdi – Bekobod.

Nān sindirdi, Unaštirdi, Ho'p debdi-Bo'ka.

Āq oradi- Bo'ka(qurama).

Juk ābārdi- kelining ko'rpa-to'shaklarini amma, xollalari olib borganida qabul qilib olish marosimi.

Āta kōrdi, Yuz āčar -to'y o'tgandan so'ng birinchi kuni o'kaziladi.

Kujov kōrišti, Kujov kōrišar(qurama)-qaynota kuyov ko'rishish payti.

Čaqirdi(Bo'ka)-Čalladi (Bekobod)- kelini ota-onasi to'ydan 2-3, 10-15 kun(2 marta o'tkaziladi) o'tgandan so'ng, kuyovning qarindoshlarini chaqirib, yangi kelin-kuyovga hurmat-izzat ko'rsatib beriladigan ziyofat.

Čilagurzān, Čillaqāšti – (chilla-qirq kunni, fors-tojikchada qochirmoqni anglatadi) chillani chiqarib chaqaloqni mehmonga olib borishni anglatadigan marosim.

Sunnat tōy (Bo'ka) – Tāy tōy (Bekobod).

Chuprān tōy-sunnat to'y marosimini anglatadi[Dala ma'lumoti].

Chipron to'y-hatna qilish jaroyonida o'tkaziladigan marosim(Bekobod).

II.Shevaga xos ba'zi sifatlar: (Bekobod)

La:vak -labi katta odamlarga nisbatan ishlatiladi.

Čāriy-og'zi kata odamlarga va bazan tishi to'kilib ketganlarga ham ishlatiladi.

Mižiq – mijg'ov, mayda gap odamlarga nisbatan ishlatiladi. Miž-miž (Xorazm, Yangibozor).

Gavrāš-daydi(Yoshi kattalar nutqida uchraydi).

Besān(ayol kishiga nisbatan),Yalča(erkak)-hech narsani eplay olmaydigan odamga nisabatan qo'llanadigan sheva so'zi.

Kajvāni- osh-ovqatni yaxshi qiladigan ayol.

Nas,suq,koziāč- adabiy tildagi ochko'z manosida.

Malla:- adabiy tildagi jigarrang manosida.

Bevuš- kam,aqli past odamga nisbatan qo'llanadi.

Ārvāh,āčārvāh- adabiy tildagi oriq,ozg'in manosida.

Ör- o'jar.

Hejkāy- dovdur.

Lašak-qovun-tarvuzga nisbatan ichi tokilgani yoki kichkinasiga nisbatan qo'llanadi.

Kačal-oyog'ini qiyshiq bosadigan odamga nisbatan qo'llaniladi.

III. Hashorot va hayvon nomlari:

Hāmšak-kuni kechida chaqadigan hasharot.

Žuk – kartoshka o'simligini zararlovchhi hashorot turi.

Zambir – adabiy tildagi ariga tog'ri keladi(shevada zambir turlari mavjud. Masalan: Gāv zambir,qizil zambir).

Mirča- chumoli.

Čijān- chayon (Yoshi kattalar nutqida sifat berishda ko'proq ishlatiladi).

Čičqān-sichqon.

Bōzak- buzoq.

IV.Shevaga xos ba'zi mahsulot nomlari:

Isiriq hududlar aro aytilishi. Isiriq (Bo'ka).

Haza:rsipān (Bekobod).

Ispat (Surxandaryo,Qumqo'rg'on) [Dala ma'lumoti].

Setka- qop sumka (asosan bozor uchun ishlatiladi).

Šipakat sumka(Xorazm,Yangibozor) [Dala ma'lumoti].

Sōmka,Sōnka- Sumka.

Rezinadan qilingan qishki oyoq kiyim joylarda aytilishi:

Bōtik , Sezān etik (Bekobod).

Mōkki (Bo'ka).

Mōkki-jundan qilingan qishki paypoq[Filologiya masalalari – yosh tadqiqotchilar nigohida, 2023:1278].

Arg'umchoq-adabiy tilda

Halgunchuqur (Bekobod)- Halginčak(Bo'ka).
Böjinsa- aravaga qo'shish uchun eshakning bo'yniga solinadigan asbob,bo'yinturuq.
Qāhmāq-qopqoq (Oqqorgon, Bo'ka-qurama).
Yalvir-elak don- dun elash uchun ishaltiladigan asbob.
Sāčāy- sochiq(Yoshi kattalar nutqida).
Könargi- uyitqi.
Hovli supurgi – Šāh šipirgi (Bekobod), Havli šipirgi (Bo'ka).
Čavli,Čāvli-suzgi manosida.
Sariymāj-saryog'.
Yölin,Örik qāqi- turishak.
Savzi-sabzi.
Pamdār,Pāmdār-pamidor.
Belvāy- belbog.

V.Shevaga xos ba'zi so'zlar:

Tajip-tabib.
Čaqa-chaqaloq.
Hašaxana-hashak bosiladigan joy.
Davir-dāvur (ko'makchi).
Dāvā-loyiq.
Kegin-keyin.
Qečqurun-kechqurun.
Xavar-habar.
Billa-birga.
Minan-bilan.
Söpirmoq-don-dunni shamolda tozalash uchun qo'llaniladigan fe'l.
Yižini kelmoq- g'ashi kelmoq,jirkanmoq.
Zarda qilmoq – achiq qilmoq manosida.

V.Ba'zi taom nomlari:

Širguruč, Sut āši- Sirguruch.
Šökla,Šöxla-Shavla.
Čäözma- chalpak.
Tuppa- keskanosh.
Ogra-ugra,unosh.
Sariy sut-yangi bolalagan sigirni suti.
Palla- sarig sutdan tayyorlanadigan tvorogsimon yegulik.
Zirvak-osh uchun qozonga sanzi-piyoz solinib qaynab chiqan payti(zirvak degan taom ham

bor).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2021.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. 1-tom. – Toshkent, 2006.
3. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. – Toshkent, 1962.
4. uz.wikipedia.org

